**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti**

**rektori ____________ X.B.Yunusov**

**“ 4 “ yanvar 2025-yil.**

# SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI XODIMLARINING XIZMAT FAOLIYATIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH VA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI OLDINI OLISH BO‘YICHA UMUMIY VA MAXSUS O‘QUV KURSUNING

# DASTURI

(qisqa muddatli o‘quv kursi)

**Samarqand– 2025 yil**

# MUNDARIJA


## I. TASHKILIY-USLUBIY BO‘LIM

1.1. Kirish

1.2. O‘quv kursining maqsadi

1.3. O‘quv kursining vazifalari

1.4. Kutilayotgan natijalar

1.5. O‘qitish shakli

1.6. Tinglovchilar kontingenti

## II. O‘QUV KURSINING MAZMUNI

2.1. O‘quv kursining umumiy hajmi

2.2. O‘quv kursining mavzular rejasi

2.3. O‘quv materiallarining mazmuni

## III. BAHOLASH MEZONLARI

## IV. FOYDALANILADIGAN MANBALAR

# TASHKILIY-USLUBIY BO‘LIM

**1.1. Kirish**

Hurmatli tinglovchilar!

Bugungi kunda korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi nafaqat global miqyosda, balki O‘zbekistonimiz uchun ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu illatlarning salbiy oqibatlari iqtisodiyotimizga, jamiyatimizga va davlat boshqaruviga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

So‘nggi yillarda bu borada qonunchilik bazasi takomillashtirilib, yangi qonunlar, Prezident qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu o‘zgarishlarni bilish va ularga mos ravishda harakat qilish har bir davlat xizmatchisi va fuqaroning muhim vazifasidir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC), Jahon bankining korrupsiyaga qarshi strategiyasi, Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkilotining (OECD) korrupsiyaga qarshi konvensiyasi kabi xalqaro hujjatlar korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikning muhimligini ko'rsatadi. O'zbekiston ham ushbu konvensiyalarga qo'shilib, korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Sizlar ishtirok etayotgan “Korrupsiyaga qarshi kurash va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish” o‘quv kursi aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Ushbu kurs davomida siz korrupsiya, manfaatlar to‘qnashuvi va ularning oqibatlari haqida chuqur bilimga ega bo‘lasiz. Shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, oldini olish va hal qilish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirasiz.

Ushbu o‘quv kursida olingan bilim va ko‘nikmalar sizning kasbiy rivojlanishingizga, tashkilotingiz faoliyatining shaffof, adolatli va samarali bo‘lishiga, shuningdek, jamiyatimizda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat shakllanishiga o‘z hissangizni qo‘shishga yordam beradi.

**1.2. O‘quv kursining maqsadi**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti va uning filiallarida faoliyat yurutib kelayotgan xodimlar hamda professor-o‘qituvchilarining xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish. Tinglovchilarni manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosati, ichki nazorat (komplaens) tizimi, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va davlat fuqarolik xizmatchisining javobgarligi kabi masalalar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar bilan qurollantirish. Kurs yakunida tinglovchilar korrupsiyaga qarshi kurashishda o‘z rolini va mas’uliyatini tushunishi, manfaatlar to’qnashuvini aniqlay olishi, ularni boshqarish va bartaraf etish usullarini bilishi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy bilimlarini amalda qo‘llay olishi lozim.

**1.3. O‘quv kursining vazifalari**

Kursning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

* Tinglovchilarga manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi, mohiyati va huquqiy asoslari haqida to‘liq ma'lumot berish.
* Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini bartaraf etishning huquqiy mexanizmlarini o‘rgatish.
* Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va uni hal qilish choralari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish.
* Tinglovchilarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari bilan tanishtirish.
* Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplaens) tizimining kelib chiqishi, uning elementlari va asosiy yo‘nalishlarini o‘rgatish.
* Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash usullari bilan tanishtirish.

* Tinglovchilarning davlat fuqarolik xizmatchisining javobgarligi bo‘yicha bilimlarini oshirish.
* Tinglovchilarning korrupsiyaga qarshi kurashishda o'z rolini va mas'uliyatini oshirish.

**1.4. Kutilayotgan natijalar**

* O‘quv dasturini o‘zlashtirish natijasida tinglovchilar:
* Manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi, mohiyati va huquqiy asoslarini to‘liq anglab yetadilar.
* Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini aniqlash va bartaraf etishning huquqiy mexanizmlarini biladilar.
* Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish va hal qilish choralari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.
* Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini biladilar va tushunadilar.
* Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat (komplaens) tizimining kelib chiqishi, elementlari va asosiy yo‘nalishlari haqida tushunchaga ega bo'ladilar.
* Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash usullarini biladilar.
* Davlat fuqarolik xizmatchisining javobgarligi bo‘yicha bilimlarini oshiradilar.
* Korrupsiyaga qarshi kurashishda o'zlarining rolini va mas'uliyatini anglaydilar.
* Ish faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish va ularga qarshi kurashishda faol ishtirok etadilar.

**1.5. O‘qitish shakli**

O‘quv kurslari ishdan ajralgan yoki ishdan ajralmagan shakllarda, shuningdek, an’anaviy (auditoriyada) yoki masofaviy (onlayn) shakllarda tashkil etiladi. Masofaviy ta’lim uchun zamonaviy platformalar (Zoom, Moodle) va interaktiv o’qitish usullari qo’llaniladi.

**1.6. Tinglovchilar kontingenti**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti va uning filiallarida faoliyat yurutib kelayotgan xodimlar hamda professor-o‘qituvchilar.

## II. O‘QUV KURSINING MAZMUNI

2.1. O‘quv kursining umumiy hajmi

O‘quv kursini o‘rganish uchun jami 20 soat ajratilgan.

2.2. O‘quv kursining mavzular rejasi

| | Modul va mavzular nomi | Mashg‘ulot turlari va ajratilgan soatlar | |
|---|---|---|---|
| | | Seminar | Jami |
| 1 | “Manfaatlar to‘qnashuvi tushunchasi, turlari, subyektlari va uning oldini olishga oid cheklovlar. | 2 | 2 |
| 2 | Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va tartibga solish sohasida tashqi va ichki nazorat | 4 | 4 |
| 3 | Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O‘RQ-419-son. | 2 | 2 |
| 4 | O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom (2024 yil 8-oktyanrdagi 369-sonli bo‘yrug‘i) | 4 | 4 |
| 5 | Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “komplayens nazorat” tizimini | 2 | 2 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | yo'lga qo'yish bo'yicha me'yoriy hujjatlar | | |
| 6 | Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning huquqiy asoslari | 2 | 2 |
| 7 | O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish. | 2 | 2 |
| 8 | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, (16.06.2021-yildagi PF-6247-son). | 2 | 2 |
| | **JAMI** | **20** | **20** |

## 2.3. O'QUV MATERIALINING MAZMUNI

**1-Modul. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi, turlari, subyektlari va uning oldini olishga oid cheklovlar.**

**1.1-mavzu. Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi, turlari, subyektlari va uning oldini olishga oid cheklovlar.**

Asosiy masalalar:
* Mavjud manfaatlar to'qnashuvi
* Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi
* Qonunni davlat xaridlari sohasida tatbiq etilishi:.
* Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solishning huquqiy asoslari..
* Mavjud manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish
* Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish.

**2-Modul. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish sohasida tashqi va ichki nazorat**

**2.1-mavzu. Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish sohasida tashqi va ichki nazorat.**

Asosiy masalalar:
* Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish sohasida nazorat tashqi va ichki shakllari
* Manfaatlar to'qnashuvini tekshirish va boshqarish
* Huquqiy oqibatlari fuqarolik tartibda aloqador shaxslarga va aybdor shaxslarga nisbatan quyidagi ko'rinishda ta'sir choralari ko'riladi

**3-Modul. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son.**

**3.1- mavzu. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son.**

Asosiy masalalar:
* Korrupsiya tushunchasi, shakllari va sabablari.
* Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlar.
* Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi.
* Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish.
* Ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya.
* Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash va ularga chek qo'yishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlashga doir

| |
|---|
| chora-tadbirlar.<br>* Davlat organlari xodimlarining korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar faktlari to‘g‘risida xabar qilish majburiyati.<br>* Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish. |
| **4-modul. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom (2024 yil 8-oktyabrdagi 369-sonli bo‘yrug‘i)** |
| **4.1-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini yanada samarali tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom (2024 yil 8-oktyabrdagi 369-sonli bo‘yrug‘i)** |
| Asosiy masalalar:<br>* Umumiy qoidalar.<br>* Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari.<br>* Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining elementlari.<br>* Axborot taqdim etish, aloqa o'rnatish va maslahat berish tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha.<br>* Korrupsion harakatlar to'g'risida xabar berish |
| **5-Modul. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish.** |
| **5.1-mavzu. Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish.** |
| Asosiy masalalar:<br>* Korrupsiyaga qarshi “komplayens-nazorat” tizimi nima?<br>* “Komplayens nazorat” tizimining xalqaro prinsiplari.<br>* Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi nizom.<br>* Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining elementlari<br>* Universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish prinsiplari:<br>* Universitet tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy elementlari.<br>* Ish jaryonidagi sovg‘alar.<br>* Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq qoidalari.<br>* Korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-ahloq qoidalarini buzganlik uchun javogarlik. |
| **6-Modul. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning huquqiy asoslari** |
| **6.1-mavzu. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning huquqiy asoslari.** |
| Asosiy masalalar:<br>* Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik tushunchasi va uning turlari.<br>* Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun huquqiy javobgarlik turlari.<br>* Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun intizomiy va ma'muriy javobgarlik asoslari.<br>* Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun jinoiy javobgarlik asoslari<br>* Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida yetkazilgan zararni qoplash<br>* Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida axborot berayotgan shaxslarni himoya qilish<br>* Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirishning vazifalari<br>* Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan qarorlarni bekor qilish yoki o‘zgartirish tartibi |
| **7-Modul. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish.** |
| **7.1-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish.** |
| Asosiy masalalar:<br>* Umumiy qoidalar.<br>* Mas'ul tarkibiy bo‘linmalar xodimlarining majburiyatlari va vakolatlari.<br>* Manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi ma'lumotlarni oshkor qilish va ko‘rib chiqish tartibi.<br>* Manfaatlar to‘qnashuvini hal qilish choralari. |
| ***8-Modul. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, (16.06.2021-yildagi PF-6247-son).*** |

| *8.1-mazu. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, (16.06.2021-yildagi PF-6247-son).* |
|---|
| Asosiy masalalar:<br>* Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar. |

## III. BAHOLASH MEZONLARI

Tinglovchilarning o'zlashtirish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

* Test sinovlari:

Har bir mavzu bo'yicha o'zlashtirishni aniqlash uchun test sinovlari o'tkaziladi.

* Amaliy topshiriqlar:

Manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi kurashishga oid vaziyatlarni tahlil qilish bo'yicha amaliy topshiriqlar beriladi.

* Guruhlarda ishlash:

Guruhlarda ishlash davomida tinglovchilarning faolligi, tahlil qilish qobiliyati va jamoada ishlash ko'nikmalari baholanadi.

* Loyihalar:

Tinglovchilar o'quv kursi davomida olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida loyihalar tayyorlashlari mumkin.

* Yakuniy imtihon:

Kurs oxirida tinglovchilar yakuniy imtihondan o'tadilar.

## IV. FOYDALANILADIGAN MANBALAR


1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi.
5. O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-son "Korrupsiyaga karshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi "Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida"gi Qonuni
9. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi O'RQ-369-son (2021-yil 21-apreldagi, 683-son Qonuni tahririda) "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-avgustdagi O'RQ-860-son "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi Qonuni.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-martdagi 103-son "Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro'yxati to'g'risida"gi qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi PF-5729-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PF-6257-son "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-apreldagi PQ-5263-son “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki Korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori.
22. O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021-yil 6-sentyabrdagi 27-son buyrug‘iga ilovaga muvofiq tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi namunaviy nizom”.
23. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning huquqiy asoslari – T.: O‘zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, 2022. – 26 b.
24. Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi kurash Konvensiyasi, Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr.
25. O‘zbekiston Respublikasining “Birlashgan Millatlar Tashkilotining korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga (NYu-York, 2003-yil 31-oktyabr) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni.

**Internet resurslar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali: www.gov.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sayti: www.minjust.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi: http://lex.uz
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi sayti: www.parliament.gov.uz
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati sayti: www.senate.gov.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sayti: www.ksu.uz
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sayti: www.supcourt.uz
8. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi sayti: www.mvd.uz
9. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi sayti:www.genprok.gov.uz
10. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi sayti: www.nhrc.uz
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) sayti: www.ombudsman.uz
12. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy Universiteti sayti: http://www.nuu.uz.